

**FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI FIZIKA-
MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ISAKOV BOBIR OLIMJONOVICH

**KREMNIY SIRTIDA VA SIRT OLDI QATLAMIDA $(Si)_{1-x}(GaSb)_x$
TUZILMALARNI HOSIL QILISH VA ULARNI KREMNIYNING OPTIK
XOSSALARIGA TA‘SIRI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2024

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on physical-mathematical sciences**

Isakov Bobir Olimjonovich

Kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida $(Si)_{1-x}(GaSb)_x$ tuzilmalarni hosil qilish va ularni kremniyning optik xossasiga ta'siri.....3

Исаков Бобир Олимжонович

Формирование структур $(Si)_{1-x}(GaSb)_x$ на поверхности кремния и в приповерхностном слое и их влияние на оптические свойства кремния.....21

Isakov Bobir Olimjonovich

Formation of $(Si)_{1-x}(GaSb)_x$ structures on the silicon surface and in the pre-surface layer and their effect on the optical properties of silicon.....39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of publications.....43

**FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI FIZIKA-
MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ISAKOV BOBIR OLIMJONOVICH

**KREMNIY SIRTIDA VA SIRT OLDI QATLAMIDA $(\text{Si})_{1-x}(\text{GaSb})_x$
TUZILMALARNI HOSIL QILISH VA ULARNI KREMNIYNING OPTIK
XOSSALARIGA TA‘SIRI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/FM732 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ispm.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Iliyev Xalmurat Midjitovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nuriddinov Izzatilla
Fizika-matematika fanlari doktori, professor,
O'zFA, Yadro fizikasi instituti, bosh ilmiy
hodimi

Radjapov Sali Ashirovich
Fizika-matematika fanlari doktori, professor,
O'zFA, FTI, bosh ilmiy hodimi

Yetakchi tashkilot:

Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiyaning himoyasi Farg'ona politexnika instituti huzuridagi falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «13» 07 soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150107, Farg'ona sh. Farg'ona k. 86 uy. Tel: (+99873) 241-12-06, faks (+99873) 241-12-06, e-mail: uzferfizika@mail.ru, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Farg'ona politexnika institutning axborot-resurs markazi ilmiy-uslubiy bo'limida tanishish mumkin. (209 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150107, Farg'ona sh. Farg'ona k. 86 uy. Tel: (+99891) 328-32-69).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «01» 07 kuni tarqatildi.
(2024 yil «01» 07 daqi 3 raqamli reestr bayonnomasi).



N.X. Yuldashev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
fizika-matematika fanlari doktori, professor

B.J. Axmadaliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, fizika-matematika fanlari
bo'yicha falsafa doktori, dotsent

S.M. Otajonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
xuzuridagi ilmiy seminar raisi, fizika-matematika
fanlari doktori, professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda quyosh energiyasidan ko‘proq foydalanib, yer osti yoqilg‘i-energiya resurslarini tejash hamda quyosh elementlarining energiya samaradorligini oshirish asosida quyosh energiyasidan oqilona foydalanish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda “...quyosh energiyasidan elektr energiyani ishlab chiqarish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan elektr energiyasini ishlab chiqarishdagi qarib 46% ulushni tashkil etmoqda. 2025-2030 yillar oralig‘ida nol emissiya senariysida elektr energiyasini qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ishlab chiqarish ulushini 60% dan orttirish belgilab olingan”¹. Bu borada kremniy xossalari tubdan farq qiluvchi xossalarga ega bo‘lgan, tarkibida III-V binar birikmalar bo‘lgan yangi materiallarni kashf qilish va ular asosida samaradorligi yuqori bo‘lgan quyosh elementlarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda kremniy materiali sirtida GaSb binar birikmalarni hosil qilish bilan materialning fizik xossalari o‘zgartirish, uning xususiyatlarini o‘rganish va yangi material asosida quyosh elementlari va infraqizil nurlanish sohasida ishlaydigan datchiklar hamda laserlar tayyorlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, kirishma sifatida Ga va Sb elementlaridan foydalanib kremniy monokristalini diffuziya usuli bilan legirlash, Si sirtida GaSb binar birikmalarni hosil qilishning maqbul termodinamik sharoitlarni aniqlash, tarkibida GaSb birikmalari mavjud kremniyning optik, elektr-fizik va fotoelektrik xossalari boshqarish, Si sirtida GaSb binar birikmalarini hosil qilish orqali shakllangan $(Si)_{1-x}(GaSb)_x$ tuzilmali yangi materialning kristall panjara parametrlarini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanadi. Shu bilan birga, sirtida GaSb binar birikmalari hosil qilingan Si namunasining taqiqlangan soha energiyasini boshqarish, $Si_{0.5}GaSb_{0.5}$ tuzilmasini kompyuterda modelini yaratish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda quyosh energiyasidan keng foydalanish va quyosh elementlarini samaradorligini oshirishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ““Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish”² bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida GaSb binar birikmalarini shakllantirish, tarkibida GaSb binar birikmalari shakllangan kremniy asosidagi quyosh elementlarini samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son “ “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-

¹ https://mmi.fem.sumdu.edu.ua/sites/default/files/mmi2015_3_84_104.pdf

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422-son "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida", 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779-son "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining III. «Energetika, energoresurs tejamkorligi, transport, mashina va asbobsozlik, zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika va elektron asbobsozligi rivojlanishi»ning ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kremniy sirtida $A^{III}B^V$ binar birikmalarni, hususan GaSb binar birikmali qatlamni epitatsial o'stirish, Si sirtida GaSb nanokristallarini ion-implantatsiya usulida shakllantirish, yarimo'tkazgichlarda binar bog'lanishlarni hosil bo'lish shartlari va ularning matematik fizik modellarini ishlab chiqishga bir qator taniqli xorijiy olimlar katta xissa qo'shganlar. Jumladan Bei Shi, Jonathan Klamkin, Eric Tournié, Laura Monge-Bartolome, K. Madiomanana, Dmitry L. Goroshko, H. Toyota, T. Endoh, T. Todo, Y.K. Su, K.S. Napolskiy, A.V. Bulgakov, O.N. Koroleva, Rakesh Kumar Pandey³ va boshqalar.

Yarimo'tkazgichlarga kirishma atomlarini diffuziya texnologiyasi yordamida kiritish hamda yarimo'tkazgich materialning asosiy xossalarini boshqarishga O'zbekistonning taniqli olimlarining ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan R.A. Muminov, M.S. Saidov, M.K. Baxodirxanov, A.T. Mamadalimov, S.Z. Zaynabidinov, N.A. Sultanov, N.Yuldashev. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida yadro nurlarini o'lchovchi — yarimo'tkazgich detektorlari, lazerlar, quyosh nurini elektr energiyasiga aylantiruvchi asbob-uskunalarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Shu bilan birga yuqoridagi olimlarning ishlarida, AIII B^V binar birikmalarni shakllantirishda asosan ion-inplantatsiya, molekulyar nurli epitaksiya, suyuq fazali epitaksiya kabi qimmat qurilmalarni talab qiladigan usullardan foydalanishgan. Diffuzion texnologiya asosida kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida GaSb binar birikmasini shakllantirish, shakllantirishning maqbul termodinamik sharoitlari va

³ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida amalga oshirildi: Keh Yung Cheng. III-V birikmali yarimo'tkazgichlar va qurilmalar asoslariga kirish. Springer xalqaro nashriyoti. Springer - 2020.; Burcu Arpapay, Y Eren Suyolcu, Gulcan Çorapçioğlu, Peter A van Aken, Mehmet Ali Gülgün and Ugur Serincan. Nominal va vicinal Si (100) tagliklarda molekulyar nur epitaksisi orqali o'stirilgan GaSb epiqatlamlari bo'yicha qiyosiy tadqiqot. Semicond. Sci. Technol. - 2020. – 12b.; Monzur-Ul-Akhir A.A.Md., Masayuki Mori, and Koichi Maezawa. Si(111) da past haroratda o'stirilgan GaSb plyonkalariga oqim nisbatining ta'siri. 2019 Informatika, elektronika va ko'rish bo'yicha 8-xalqaro konferentsiya (ICIEV) va Tasvirlash, ko'rish va chizmani aniqlash bo'yicha 3-xalqaro qo'shma konferentsiya (IVPR), - 2019, 312-317b. va boshqalar.

tarkibida $\text{Si}_{1-x}(\text{GaSb})_x$ tuzilma mavjud bo'lgan yangi materialning optik va fotoelektrik parametrlari hanuzgachacha o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat texnika universitetini "Raqamli elektronika va mikroelektronika" kafedrasidagi ilmiy tadqiqot rejasining OT-F2-50 raqamli «Kremniy panjarasida $\text{A}^{\text{III}}\text{B}^{\text{V}}$ va $\text{A}^{\text{II}}\text{B}^{\text{VI}}$ yarimo'tkazgich birikmalarining elementar yacheykalari shakllanishining ilmiy asoslarini ishlab chiqish – fotoenergetika va fotonika uchun istiqbolli materiallar olishdagi yangi yondashuv» (2017-2020 yy.) mavzusidagi va OT-F2-55 "Yangi funktsional imkoniyatlarga ega nanomateriallarning yangi sinfi sifatidagi kirishma atomlari nanoklasterlarining shakllanishi negizida hajmiy strukturalashgan kremniy olishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish" (2017–2020 y.) mavzusidagi fundamental loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu dissertatsiya ishi tadqiqotlarining maqsadi kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida $(\text{Si})_{1-x}(\text{GaSb})_x$ qattiq qorishmali tuzilmalarni hosil qilish va ularni kremniyning optik xossalariga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Ushbu dissertatsiya ishi tadqiqotining vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida $(\text{Si})_{1-x}(\text{GaSb})_x$ qattiq qorishmali tuzilmalarni hosil qilishning matematik hamda komputer modellarini yaratish;

kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida $(\text{Si})_{1-x}(\text{GaSb})_x$ qattiq qorishmali tuzilmalarni hosil qilishning maqbul termodinamik sharoitlarini aniqlash;

Ga, Sb elementlarini kirishma sifatida tabiatini hisobga olgan holda kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida $(\text{Si})_{1-x}(\text{GaSb})_x$ qattiq qorishmali tuzilmalarni hosil qilish;

kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida $(\text{Si})_{1-x}(\text{GaSb})_x$ qattiq qorishmali tuzilmalarni shakllanishi va taqsimlanishining shartlarini aniqlash;

$(\text{Si})_{1-x}(\text{GaSb})_x$ qattiq qorishmali tuzilmalarga ega kremniyning optik va fotoelektrik xossalarini o'rganish;

shakllangan $(\text{Si})_{1-x}(\text{GaSb})_x$ qattiq qorishmali yangi tuzilmaning panjara parametrlari hamda taqiqlangan soha energiyasini o'rganish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida elektronika sanoatida foydalanilgan KEF-1; KEF-4,5; KEF-100; KDB-0,5 (fosfor va bor konstentrastiyasi mos ravishda $N_p \approx 5 \times 10^{15} \text{ cm}^{-3}$; $N_p \approx 1 \times 10^{15} \text{ cm}^{-3}$; $N_p \approx 5 \times 10^{13} \text{ cm}^{-3}$; va $N_B = 5 \times 10^{16} \text{ cm}^{-3}$) markali kremniy monokristallari tanlab olindi. Qorishma elementi sifatida Ga va Sb elementlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti. Kremniyning kristall panjara xossalariga $(\text{Si})_{1-x}(\text{GaSb})_x$ ko'rinishidagi qattiq qorishmali tuzilmaning ta'sir qilishi va uning optik xususiyatini o'zgartirishi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kremniyga kirishmalarni kiritishda diffuziya usulidan foydalanilgan, namuna parametrlarini aniqlashda, Holl effekti, Bregg-Vulf, Tauk va Kubelka–Munk kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida $(\text{Si})_{1-x}(\text{GaSb})_x$ qattiq qorishmali tuzilmalarni hosil bo'lishining maqbul termodinamik sharoitlari skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) yordamida aniqlangan;

ilk bor diffuziya usuli yordamida, Ga va Sb kirishma atomlari ishtirokida kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida $(\text{Si})_{1-x}(\text{GaSb})_x$ qattiq qorishmali tuzilmalarni hosil bo'lishi Raman spektroskopiyasi yordamida ko'rsatilgan;

kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida hosil bo'lgan $(\text{Si})_{1-x}(\text{GaSb})_x$ qattiq qorishmali yangi tuzilma Si–0.44 va (GaSb)–0.56 ulushga (ya'ni $\text{Si}_{0.44}(\text{GaSb})_{0.56}$) ega ekanligi optik nurlarni akslanishini tahlili asosida aniqlangan;

$\text{Si}_{0.44}(\text{GaSb})_{0.56}$ qattiq qorishmali tuzilmaning kristall panjara parametrlari, miller indeksi (111) yo'nalishda, kristall panjara doimiysi $a_{\text{Si}_{0.56}(\text{GaSb})_{0.44}} = 5.67 \text{ \AA}$ kremniyning kristall panjara doimiysi (5,43 Å)dan ~4,4% katta ekanligi rentgen nurlarini difraksiyasi usuli yordamida aniqlangan;

$\text{Si}_{0.44}(\text{GaSb})_{0.56}$ qattiq qorishmali tuzilmani taqiqlangan soha energiyasi $E_{g,\text{Si}_{0.44}(\text{GaSb})_{0.56}} = 0.896 \text{ eV}$, kremniyning taqiqlangan soha energiyasidan 20% kichik ekanligi Vegard qonuni asosida aniqlangan;

diffuziya usulida Ga va Sb kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning fotoelektrik sezgirligi yorug'lik nurining infraqizil sohasi tomonga siljishi infraqizil spektroskopiya bilan aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida $(\text{Si})_{1-x}(\text{GaSb})_x$ qattiq qorishmali tuzilmalarini olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida $(\text{Si})_{1-x}(\text{GaSb})_x$ qattiq qorishmali tuzilmalarni hosil qilish bilan uning optik xususiyatlarini o'zgartirish mumkinligi ko'rsatildi. Natijada quyosh spektrini kengroq sohasini qamrab olish imkoniyati ko'rsatilgan;

diffuziya usuli yordamida kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida Ga va Sb atomlari ishtirokida p - n o'tish olingan va uning spektral sezgirligi infraqizil tomonga kengayishi aniqlangan.

Olingan natijalarning ishonchliligi ma'lumotlarni o'lchash va ishlov berishda bir biriga bog'liq bo'lmagan usullar majmuasidan foydalanilgan, hamda, kremniyda shakllangan $(\text{Si})_{1-x}(\text{GaSb})_x$ tuzilmalarning holatini skanerlovchi elektron mikroskop, kukunli rentgen difraktometr, rentgen spektral tahlil, UV-VIS-IR spektrofotometr va Raman mikroskop yordamida o'rganilganligi bilan ta'minlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida $(\text{Si})_{1-x}(\text{GaSb})_x$ qattiq qorishmali tuzilmalarni hosil qilish mumkinligi ko'rsatildi. Natijada kremniyning optik parametrlarida o'zgarish bo'lishi aniqlandi va bu jarayon kremniy kristall panjara parametrlarining o'zgarishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijasining amaliy ahamiyati kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida $(\text{Si})_{1-x}(\text{GaSb})_x$ qattiq qorishmali tuzilmalarni shakllantirishning maqbul texnologiyasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Kremniyda GaSb binar birikmalarini hosil qilish bilan yangi material olish va fotoelementlarning spektral sezgirlik sohasini kengaytirish asosida:

Kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida $(Si)_{1-x}(GaSb)_x$ qattiq qorishmali tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi «FOTON» akstiyadorlik jamiyatida tranzistorlarni ishlab chiqarishga joriy etildi (“O‘zeltexsanoat” uyushmasining 2023 yil 07 dekabrda 04-3/1703 sonli ma’lumotnomasi). Natijada tarkibida $(Si)_{1-x}(GaSb)_x$ qattiq qorishmali tuzilmalar mavjud kremniydan yasalgan tranzistorlarning, ishlash tezligi tarkibida $(Si)_{1-x}(GaSb)_x$ qattiq qorishmali tuzilmalar mavjud bo‘lmagan kremniyga nisbatan tezkorligi 1,5 marotabaga oshishiga olib kelgan.

Kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida $(Si)_{1-x}(GaSb)_x$ qattiq qorishmali tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi «FOTON» akstiyadorlik jamiyatida quyosh elementlarini ishlab chiqarishga joriy etildi (“O‘zeltexsanoat” uyushmasining 2023 yil 07 dekabrda 04-3/1703 sonli ma’lumotnomasi). Natijada tarkibida $(Si)_{1-x}(GaSb)_x$ qattiq qorishmali tuzilmalar mavjud kremniy asosida yasalgan quyosh elementining samadorligini boshlang‘ichiga nisbatan 3,7 % gacha oshirilgan.

Kirishma atomlarini kremniydagi taqsimotini MathCad dasturi yordamida yaratilgan matematik modelidan Qarshi davlat universitetida 2019-2021 yillarda bajarilgan “Qarshi davlat universiteti va Qashqadaryo viloyatidagi ishlab chiqarish korxonalarini o‘rtasida talabalarni o‘qitish sifatini yaxshilashga qaratilgan munosabatlarni mustahkamlash” mavzusidagi loyihani bajarish doirasida, foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024 yil 10 yanvarda 04/60 sonli ma’lumotnomasi). Natijada diffuziya jarayonini matematik modellash bo‘yicha talabalarda ko‘nikmalarni shakllanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobastiyasi Dissertatsiya ishini bajarishda olingan asosiy ilmiy natijalar 9 ta xalqaro, 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish chop etilgan bulardan 2 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, 2 tasi Scopus bazasida indexlangan jurnallarda, 3 tasi yuqori Impact Factorga ega xalqaro ilmiy jurnallarda nashr etilgan. Bundan tashqari 1 ta dasturiy vositaga guvohnoma (DGU) olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan va ilovalardan iborat bo‘lib, 56 ta rasm, 18 ta jadvalni o‘z ichiga olgan holda 114 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertasiyaning «**Kirish**» qismida mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, muammoning oʻrganilganlik darajasi ochib berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti va metodlari keltirilgan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ishning aprobatsiyasi, nashr etilgan ilmiy ishlar, shuningdek dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida qisqacha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning «**Kremniy sirtida III-V tipidagi binar birikmali qatlamlarni shakllantirish**» deb nomlangan birinchi bobning 1.1-§ boʻlimida kremniy tagligida III-V binar birikmali qatlamlarni olishning zamonaviy muammolari va ularning yechimlari, 1.2-§ boʻlimida kremniy tagligida III-V binar birikmali qatlamlarni olish usullari, 1.3-§ boʻlimida ushbu qatlamlarni qayd etish va oʻrganish usullari tahlil qilingan. 1.4-§ boʻlimda Ga va Sb atomlarining birikma hosil qilish xususiyatlari, 1.5-§ boʻlimda Ga va Sb atomlarini Si da birikma hosil qilish shartlari, 1.6-§ boʻlimda Ga va Sb atomlarining birikish termodinamikasi tadqiq qilingan.

Adabiyotlar tahlillaridan kelib chiqib, dissertatsiya ishini bajarish vazifalari shakllantirilgan.


Dissertasiyaning «**(Si)_{1-x}(GaSb)_x tuzilmali kremniy namunalari olish texnologiyasi**» deb nomlangan ikkinchi bobi beshta boʻlimdan tashkil topgan boʻlib, 2.1-§ boʻlimda tajriba uchun tanlab olingan kremniy namunalari parametrlari va namunalarga mehanik hamda kimyoviy ishlov berish haqida soʻz boradi yaʼni namunalarni diffuziya jarayoniga tayyoshlash ketma-ketligi yoritib berilgan. 2.2-§ boʻlimda Ga va Sb atomlarining kremniydagi diffusion parametrlari hamda kremniyda GaSb binar birikmalarni hosil qilishning diffuziya texnologiyasi haqida soʻz yuritiladi. 2.3-§ boʻlimda kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida (Si)_{1-x}(GaSb)_x tuzilmalarni hosil qilish uchun, diffuziya texnologiyasini moslashtirish, 2.4-§ boʻlimda (Si)_{1-x}(GaSb)_x tuzilmalar hosil qilingan namunalarga termik ishlov berish haqida soʻz boradi. 2.5-§ boʻlimda kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida (Si)_{1-x}(GaSb)_x tuzilmalarni hosil qilishning maqbul texnologiyasi aniqlangan.

Maʼlumki kremniyning erish harorati $T=1414$ °C ga teng, $T=1300$ °C haroratdan kremniyning atomlari kuchli bugʻlanishni boshlaydi, $T=1000$ °C dan past haroratlarda Ga va Sb kirishma atomlarining kremniydagi diffuziya koeffitsienti juda kichikligi sababli $1000\div 1250$ °C haroratlar oraligʻida barcha tajribalar amalga oshirilgan.

Diffuziyaning $1000\div 1100$ °C harorat oraligʻida Ga va Sb kirishma atomlari birikma hosil qilmadi. Bunga sabab Ga va Sb kirishmalarning bugʻlangan atomlari yetarlicha bugʻ bosimini hosil qilmagan.

1-rasmda $T=1100$ °C haroratda 10 soat vaqt davomida Ga va Sb kirishma atomlari bilan bir vaqtda ligerlangan kremniy namunasi sirtining SEM tasviri keltirilgan.

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki Ga va Sb kirishma atomlari kremniy sirtida birikma hosil qilgan. Bunda $T=1100\text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratda Ga va Sb kirishmalarning bug‘langan atomlari yetarli darajada bug‘ bosimini hosil qilgan hamda, Ga va Sb kirishma atomlari birikib GaSb binar birikmali orolchalar shakllangan. Bundan tashqari shakllangan GaSb orolchalarning o‘lchamlari deyarli bir xil ($\sim 50\text{ }\mu$). Shuning uchun mazkur harorat GaSb binar birikmalar shakllanishi uchun eng maqbul harorat ekanligi aniqlandi.




1-rasm. $T=1100\text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratda 10 soat vaqt davomida Ga va Sb kirishma atomlari bilan bir vaqtda ligerlangan kremniy namunasi sirtining SEM tasviri

2-rasmda $T=1200\text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratda 10 soat vaqt davomida Ga va Sb kirishma atomlari bilan bir vaqtda ligerlangan kremniy namunasi sirtining SEM tasviri keltirilgan.

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki Ga va Sb kirishma atomlari kremniy sirtida birikma hosil qilgan. Bunda $T=1200\text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratda Ga va Sb kirishmalarning bug‘langan atomlari yetarli darajada bug‘ bosimini hosil qilgan hamda, Ga va Sb kirishma atomlari birikib GaSb binar birikmali orolchalar shakllangan. Lekin shakllangan GaSb orolchalarning o‘lchamlari turli xil ($\sim 1\div 30\text{ }\mu$).

Diffuziyaning 1200÷1250 °C harorat oralig‘ida Ga va Sb kirishma atomlari birikma hosil qiladi, lekin GaSb binar birikmali orolchalari juda kichik o‘lchamlarda shakllanadi. Bunda Ga va Sb kirishmalarning ushbu haroratlarda kremniydagi diffuziya koeffitsientlarini kattaligi sababli kirishma atomlari kremniy kristall hajmiga singib ketadi.



2-rasm. T=1200 °C haroratda 10 soat vaqt davomida Ga va Sb kirishma atomlari bilan bir vaqtda ligerlangan kremniy namunasi sirtining SEM tasviri

1-jadvalda $T=1000, 1100, 1200$ va 1250 °C haroratlarda Ga va Sb kirishma atomlarini kremniyga diffuziya qilish natijasida GaSb binar birikmali orolchalarni shakllanishi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

1-jadval. GaSb binar birikmalari o‘lchamlarini diffuziya haroratiga bog‘liqligi.



	T=1000 °C	T=1100 °C	T=1200 °C	T=1250 °C
GaSb binar birikmalari shakllanganligi	Shakllanmagan	Shakllangan		
GaSb binar birikmasining o‘lchami	–	o‘lchamlari deyarli bir xil	o‘lchamlari turli xil	o‘lchamlari turli xil va juda kichik
	–	~50 μm	~1÷30 μm	~0.1÷5 μm

Dissertasiyaning « $(\text{Si})_{1-x}(\text{GaSb})_x$ tuzilmali kremniyning optik, fotoelektrik va spektroskopik xossalari» deb nomlangan uchinchi bobi 7 ta bo‘limdan iborat bo‘lib, 3.1-§ bo‘limida Ga va Sb kirishma atomlari bilan ligirlangan kremniy namunasi birikmalarni aniqlashning Raman usuli yordamida, 3.2-§ bo‘limda GaSb binar birikmali kremniyning optik xossalari tadqiq qilingan. 3.3-§ GaSb binar birikmali kremniyning XRD tahlili, 3.4-§ bo‘limda GaSb binar birikmali kremniyning element tahlili, 3.5-§ bo‘limda $(\text{Si})_{1-x}(\text{GaSb})_x$ tuzilmali kremniyning fotoelektrik xossalari, o‘rganilgan. 3.6-§ bo‘limda $(\text{Si})_{0.5}(\text{GaSb})_{0.5}$ tuzilmani kristall panjarasi hamda elektronlarning energetik sathlar tuzilishini komputer dasturlari yordamida modellashtirish ko‘rib chiqilgan. 3.7-§ bo‘limda $(\text{Si})_{0.5}(\text{GaSb})_{0.5}$ tuzilmali yarimo‘tkazgichning kelajakdagi istiqbollari ochib berilgan.

3 – b, e, g rasmlarda Ga va Sb kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunasi sirtinining ko‘rinishi keltirilgan bo‘lib, to‘lqin uzunligi 532 nm quvvati 20mWatt bo‘lgan lazer nuri tushgan joylari ham tasvirlangan. Rasmlardan ko‘rinib turibdiki, namuna yuzasida kulrang, uning ustida oq orolchalar va qora yopiq egri chiziqlar mavjud. Shu uch xil bir biridan farq qiluvchi sohalar lazer nurini tushirish orqali Raman tahlili olindi. Har bir tanlangan nuqtani, Raman spektrining grafik ko‘rinishi mos ravishda 3 – a, d, f rasmlarda keltirilgan.



3 – a rasmda asosiy kulrang maydondan olingan Raman spektrining tahlili shuni ko‘rsatdiki, 519 cm^{-1} da intensivligi juda yuqori bo‘lgan (Intensity=15000 a.u.) bitta cho‘qqi aniqlandi. Bu cho‘qqi Si ga tegishli ekanligi adabiyotlardan o‘z tasdig‘ini topdi. 3 - d rasmda esa oq orolchalarning birini ustidan olingan spektr keltirilgan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, spektrda 225 cm^{-1} da (Intensity=7000 a.u.) bitta cho‘qqi aniqlandi va bu cho‘qqi GaSb (LO) kristalliga tegishli ekan. 3 – f rasmda qora chiziqning ustidan olingan spektr keltirilgan bo‘lib, bu holatda 2 ta bir biridan farqli cho‘qqilar olindi. Cho‘qqilarning qiymatlarini adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar bilan solishtirilganda, $222,1 \text{ cm}^{-1}$ GaSb ga va 519 cm^{-1} cho‘qqi esa Si ga tegishli ekanligi aniqlandi. Oxirgi olingan natijalardan qora yopiq egri chiziqli sohani $\text{Si}(\text{GaSb})$ tarkibli kristal deb aytishimiz mumkin.

4-rasmda 3 ta $E_1=0.72 \text{ eV}$, $E_2=0.896 \text{ eV}$ va $E_3=1.02 \text{ eV}$ energiya qiymatlari aniqlandi. E_1 energiya GaSb yarimo‘tkazgich materialining taqiqlangan soha energiyasi, E_2 hamda E_3 energiyalar $\text{Si}_{1-x}(\text{GaSb})_x$ xosil bo‘lgan materialga tegishli taqiqlangan soha energiyasi. Vegard qonunini teskari hisoblash yordamida Si va GaSb moddalarning miqdoriy ulushini aniqlaymiz. $E_2=0.892 \text{ eV}$ ni $\text{Si}_{1-x}(\text{GaSb})_x$ materialining E_g , energiyasi deb faraz qilsak, uholda buni quyidagicha hisoblaymiz.





a)

b)



d)

e)



f)

g)


3-rasm. Ga va Sb kirishma atomlari bilan ligerlangan Si namuna yuza qismining Raman spektri va tasviri

$$E_{g, Si_{(1-x)}(GaSb)_x} = (1-x) \cdot E_{g, Si} + x \cdot E_{g, GaSb}$$

bu tenglamaga E_2 , $E_{g, Si}$, $E_{g, GaSb}$ energiya qiymatlarini qo‘ysak, u holda quyidagi bitta noma‘lumlik chiziqli tenglama hosil bo‘ladi.

$$0.896 = (1 - x) \cdot 1.12 + x \cdot 0.726$$


Bu tenglamadan $x=0.56$ ekanligi aniqlandi. Demak E_2 energiya $\text{Si}_{0.44}(\text{GaSb})_{0.56}$ yangi shakllangan strukturaga tegishli deyishimiz mumkin. Xuddi shunday E_3 energiya $\text{Si}_{0.75}(\text{GaSb})_{0.25}$ strukturaga mos keladi.



4-rasm. Ga va Sb atomlari bilan ligerlangan Si namunasining nur qaytarish tavsifi.

5-rasmda Ga va Sb atomlari diffuziya usulida kiritilgan Si namunaning XRD spektri kristallografik ma'lumotlar bazasi COD dan olingan qiymatlar bilan solishtirilgan holatda tasvirlangan. Diffuziyadan so'ng Si sirtidan qaytgan rentgen nurlari hosil qilgan spektrdan 17 ta asosiy cho'qqilar belgilab olindi (5-a rasm). Olingan cho'qqilarni aniqlash maqsadida xalqaro ochiq kristallografik ma'lumotlar bazasidan GaSb va Si materiallari uchun 2θ burchakga mos keluvchi chiziqlar ustma-ust qo'yildi (5-b,d rasmlar). Si sirtida GaSb hosil bo'lganligi haqidagi ma'lumot 25.25, 29.35, 41.89, 49.58, 60.78, 66.05, 67.5, 76.55, 82.25, 91.32, 96.82, 98.71 cho'qqilarda aks etgan bo'lib, mos ravishda (111), (020), (202), (311), (040), (313), (402), (242), (511), (404), (513), (060) kristall tekisliklariga to'g'ri keladi. 5-a rasmdagi umumiy spektrda albatta Si ga tegishli cho'qqilar 56.23, 69.41, 76.55 mavjud bo'lib, mos ravishda (131), (040), (313) tekisliklarga to'g'ri keladi. Cho'qqilar tahlili shuni ko'rsatdiki, GaSb ga ham, Si ga ham tegishli bo'lmagan No2, No9 cho'qqilar hosil bo'lgan. Mazkur cho'qqilarni kristall panjara parametrlarini aniqlandi.

Ma'lumki GaSb va Si monokristallarining kristall panjara doimiysi mos ravishda $a=6.09 \text{ \AA}$, $a=5.34 \text{ \AA}$ ga teng.



5-rasm. Namunalarni XRD taxlili: *a* – Ga va Sb kirishma atomlari bilan legirlangan Si namunasi; *b* va *d* – COD (Crystallography Open Database) No: 96-900-8848 va No: 96-901-1999 raqamli ma’lumotlar bazasidan olingan mos ravishda GaSb va Si yarimo‘tkazgichlarning kristall ma’lumotlari.

5-*b* rasmdagi GaSb (242) hamda 5-*d* rasmdagi Si (313) cho‘qqilar ustma-ust tushgan. P. Paulraj va R. Harichandranlarning ishida No4 cho‘qqi SiC (101) ga tegishli ekanligi ko‘rsatilgan. Lekin No2, No9 cho‘qqilar mos ravishda GaSb $2\theta=25.25$ (111) va Si $2\theta=28.45$ (111) hamda GaSb $2\theta=60.51$ (040) va Si $2\theta=69.25$ (040) cho‘qqilarini orasida joylashganligi uchun, hosil bo‘lgan $Si_{1-x}(GaSb)_x$ yangi tuzilmani, No2 cho‘qqi (111) yo‘nalishiga, No9 cho‘qqi (040) yo‘nalishga tegishli deb aytish mumkin. Ushbu natijalar yordamida Si va uning sirtida shakllangan GaSb binar birikmasining panjara doimiysi (*a*) va difraksion panjara doimiysi (d_{hkl}) mos ravishda quyidagi 1 va 2 ifodalar orqali hisoblandi (2-jadval):

$$a = d_{hkl} \cdot \sqrt{h^2 + k^2 + l^2} \quad (1)$$

$$d_{hkl} = \frac{\lambda}{2 \cdot \sin \theta} \quad (2)$$

bu yerda θ Bragg burchagi va $\lambda=0.15402$ nm (Cu - α ning to‘lqin uzunligi).

Diffuziya uchun tayyorlangan kremniy namunalarni 2 guruhga ajratildi, I guruh namunalarga bir vaqtning o‘zida Ga va Sb kirishma atomlari diffuziya qilindi. II guruh namunalari kirishmalarsiz qizdirildi. 6 va 7-rasmlarda mazkur namunalarning sirtining element tahlili va sirt morfologiyasi keltirilgan.

6-a rasmdan ko‘rinib turibdiki, I-guruhdagi namuna sirtida tartibsiz ravishda oq dog‘lar shakllangan, II-guruhdagi namuna sirtida esa bunday dog‘lar mavjud emas (6-b) rasimga qarang). 6-a rasmda 3 ta spektrlar tahlil qilindi: 11-spektr, (6-a, rasmda ko‘rinib turgan oq chizikli maydon bo‘yicha element tahlil 6-d rasmda keltirilgan); 12-spektr (6-a rasmdagi oq orolchalar shakllanmagan nuqtaning element tarkibi 7-a rasmda keltirilgan), 13-spektr (6-a rasmdagi oq orolchalarning birini element tarkibi 7-b rasmda keltirilgan).

11-spektrda Si (shartli konsentratsiya 0.9 ga teng (3-jadvalga qarang)), Ga (shartli konsentratsiya 0.08 ga teng), Sb (shartli konsentratsiya 0.04 ga teng), O (shartli konsentratsiya 0.03 ga teng), C (shartli konsentratsiya 0.02 ga teng) elementlari aniqlandi.

12-spektrda faqatgina Si (shartli konsentratsiya 1.16 ga teng (3-jadvalga qarang)) elementi aniqlandi.


13-spektrda Si (shartli konsentratsiya 0.02 ga teng (3-jadvalga qarang)), Ga (shartli konsentratsiya 0.4 ga teng), Sb (shartli konsentratsiya 0.39 ga teng), O (shartli konsentratsiya 0.06 ga teng) elementlari aniqlandi.

2-jadval. 6-rasmdagi cho‘qqilar haqida ma’lumot


Kristall	Cho‘qqi No.	2 θ	h	k	l	$d_{hkl}, \overset{\circ}{\text{Å}}$	$a_{hkl}, \overset{\circ}{\text{Å}}$
GaSb	1	25,25	1	1	1	3,52	6,10
	3	29,35	0	2	0	3,04	6,08
	5	41,89	2	0	2	2,15	6,09
	6	49,58	3	1	1	1,84	6,09
	8	60,78	0	4	0	1,52	6,09
	10	66,05	3	1	3	1,41	6,16
	11	67,5	4	0	2	1,39	6,19
	13	76,55	2	4	2	1,24	6,09
	14	82,25	5	1	1	1,17	6,08
	15	91,32	4	0	4	1,08	6,09
	16	96,82	5	1	3	1,03	6,09
17	98,71	0	6	0	1,01	6,09	
Si	7	56,23	1	3	1	1,63	5,42
	12	69,41	0	4	0	1,35	5,41
	13	76,55	3	1	3	1,24	5,42
Si _{1-x} (GaSb) _x	2	27,19	1	1	1	3,28	5,67
	9	61,55	0	4	0	1,50	6,02

II-guruh namunasi sirtidagi oq chiziq bilan chegaralangan (7-b rasimga qarang) hududning element tarkibi 6-d rasmda keltirilgan (17-spektr).

17-spektrda Si (shartli konsentratsiya 0.97 ga teng), O (shartli konsentratsiya 0.16 ga teng), C (shartli konsentratsiya 0.01 ga teng) elementlari aniqlandi.



6-rasm. Namunalarni diffuziyadan so‘ng olingan SEM tahlili; a) I-guruh namunasi sirtining SEM tasviri; b) II-guruh namunasi sirtining SEM tasviri; d) I-guruh namunasi sirtining element tahlili; e) II-guruh namunasi sirtining element tahlili.



7-rasm. I-guruh namunasi sirtining lokal nuqtalaridan olingan elementar tahlil; a) 6, a-rasmdagi 12-spektrning element tahlili; b) 6, a-rasmdagi 13-spektrning element tahlili.

3-jadval. 6- va 7-rasmlardagi I va II guruh namunalaridan olingan element tahlili natijalari.


Element	Chiziq turi	Shartli kontsentratsiya	Og'irlik. %	Sigma Og'irlik. %
11-spectr				
C	K seriya	0.02	11.34	0.69
O	K seriya	0.03	2.12	0.24
Si	K seriya	0.90	72.12	0.74
Ga	L seriya	0.08	9.16	0.29
Sb	L seriya	0.04	5.26	0.50
Umumiy:			100.00	
12-spectr				
Si	K seriya	1.16	100.00	0.00
Umumiy:			100.00	
13-spectr				
O	K seriya	0.06	2.67	0.26
Si	K seriya	0.02	1.48	0.19
Ga	L seriya	0.40	52.14	0.82
Sb	L seriya	0.39	43.72	0.85
Umumiy:			100.00	
17-spectr				
C	K seriya	0.01	7.97	0.79
O	K seriya	0.16	11.71	0.39
Si	K seriya	0.97	80.32	0.78
Umumiy:			100.00	

Diffuziya uchun tayyorlangan kremniy namunalarini 2 guruhga ajratildi, I guruh namunalariga faqat Sb kirishma atomlari, II guruh namunalariga avval Ga so'ngra Sb kirishma atomlari diffuziya qilingan. Mazkur namunalarni fotoelektrik xossasi 8-rasmda tahlil qilingan.

I hamda II guruhlardagi namunalar diffuziyadan so'ng $T=600$ °C xaroratda qo'shimcha qizdirilgan.

8-rasmdagi grafiklardan ko'rinib turibdiki 1-guruhdagi namuna, ya'ni kremniyga faqat Sb kirishma atomlari ligirlangan namunaning fotoelektrik sezgirliги 1.0 eV dan boshlanib 1.24 eV energiyada o'zining maksimal qiymatiga erishgan. 2-guruhdagi namuna ya'ni kremniyga avval Ga so'ngra Sb kirishma atomlari kiritilgan namunaning fotoelektrik sezgirliги 0.87 eV dan boshlanib 1.2 eV energiyada o'zining maksimal qiymatiga erishgan. Bundan ko'rinib turibdiki Ga va

Sb kirishma atomlarining o‘zaro birikishi hisobiga kremniyning fotoelektrik sezgirligi infraqizil soha tomonga siljigan.



